

Xalqaro hamkorlik samarasi: Istiqbolli loyihalar



O'zbekistonda birinchi marta AQSHning Olimpiya va Antidoping qo'mitalari qoshidagi "Partnership for Clean Competition" fondining sportda sog'lom raqobatni oshirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini moliyaviy ta'minlash doirasida tanlov e'lon qilindi. Ushbu tanlovda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi U.A.Arifov nomidagi Ion-plazma va lazer texnologiyalari insituti katta ilmiy xodimi Dilshadbek Usmanov "Morfinnibionamunalarda yuqori sezgirlikda aniqlashning sirt ionlashish usulini rivojlantirish" mavzusida mikrogrant yutib

oldi.

Loyihaning bajarilish muddati - 6 oy. Loyihaning moliyaviy hajmi 16900 AQSH dollarini tashkil etadi.

Shuningdek, Latviya Respublikasi Hukumati va O'zbekiston Respublikasi Hukumati o'rtasidagi ilmiy-texnikaviy hamkorlik doirasida Latviya Respublikasi tomonidan e'lon qilingan ilmiy-tadqiqotlar bo'yicha o'tkazilgan tanlovda Institutning katta ilmiy xodim Urol Maxmanov g'olib bo'ldi. Nanotexnologiyalarning dolzarb muammolari bo'yicha hamkorlikda ilmiy-tadqiqotlar olib borish uchun 2018 yilning 1 dekabridan - 2019 yilning 31 martigacha Latviya universitetida (Latviya, Riga) xizmat safarida bo'lishi rejalashtirilgan.

Ilmiy stajirovkaning maqsadi nanoo'lchamli zarrachalar, xususan S60 va S70 fullerenlari molekulalarining turli organik erituvchilardagi eritmalarida hamda qattiq taglik sirtidagi fullerenlar eritmalarini tomchilarining issiqlikdan bug'lanish jarayonlarida molekulalarning o'z-o'zidan yig'ilishi va tashkillanish qonuniyatlarini tadqiq qilishdir.

G'oliblarni ushbu yutuq bilan tabriklab, kelgusidagi ishlariga muvaffaqiyatlar tilab qolamiz!